

«SHARQ-U G'ARB ADABIYOTIDA GUMANIZM: NAVOIY VA PUSHKIN»

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled

«HUMANISM IN EASTERN AND WESTERN LITERATURE: NAVOI AND PUSHKIN»



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ-U G'ARB
ADABIYOTIDA GUMANIZM:
NAVOIY VA PUSHKIN”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

2024-yil, 25-aprel

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
FACULTY OF UZBEK PHILOLOGY
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international scientific-theoretical
conference titled*

**“HUMANISM IN EASTERN AND
WESTERN LITERATURE:
NAVOI AND PUSHKIN”**

April 25, 2024

Toshkent
“Nurafshon business”
2024

UO'K 845.711.05

KBK 133.585.3

“Sharq-u G‘arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2024. – 840-b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas‘ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,

filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay‘ati:

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Sulton Normamatov (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makbal Orazbek (Qozog‘iston), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Odinxon Jamoliddinova (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

“Sharq-u G‘arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin” mavzusida o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari komparativistikaning sof nazariy va amaliy muammolariga doir tadqiqotlardan tarkib topgan. Shunga ko‘ra to‘plam “Navoiy va Pushkin ijodida gumanizm konsepsiyasi”, “Navoiy va Pushkin ijodining global mohiyati”, “Yosh tadqiqotchilar Navoiy va Pushkin haqida” nomli uch qismga ajratilgan. Navoiy va Pushkin asarlariga xos spetsifika, semantika, struktura, lingvopoetik, lingvopsixologik xossalar qiyosiy tahlil etilgan. Ayni paytda, ikki ulug‘ mutafakkirning jahon xalqlari badiiy tafakkuriga ta‘siri, global ahamiyatiga oid nazariy tadqiqotlar o‘rin olgan.

Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2024-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

© “Nurafshon business”, 2024.

63.	<i>Maftuna NORQULOVA.</i> “ҚУРОҚ” ҚИССАСИДА КИНОЯ УСЛУБИ	596
64.	<i>Matluba ЖАББОРОВА.</i> НАВОИЙ “ХАМСА”СИДА “ЖОМИ ЖАМ” ТАЛҚИНИ	607
65.	<i>Olmos XURRAMOV.</i> HOZIRGI O‘ZBEK TARIXIY NASRINING JANR XUSUSIYATLARI	612
66.	<i>O‘g‘iljon PANAYEVA.</i> OMON MATJON IJODIDA QUSH TIMSOLI	620
67.	<i>Zebo YAKHSHIEVA.</i> ARTISTIC IMAGE AND HISTORICAL PERSONALITY IN THE WESTERN AND EASTERN LITERATURE	626
68.	<i>Umida ABDULLAYEVA.</i> LIRIKADA IJODIY XOTIRA	632
69.	<i>Feruzat ATAMURODOVA.</i> THE FORMATIVE HISTORY OF THE NOVEL	637
70.	<i>Iroda ISHONXANOVA.</i> PUSHKIN IJODIDA SHARQ FALSAFASI TALQINI	642
71.	<i>Shahlo HOJIYEVA.</i> CHO‘LPON SHE‘RIYATIDA RUS POEZIYASI AN‘ANALARI	648
72.	<i>Nulufar DILMURODOVA.</i> АСАД ДИЛМУРОД ЭСТЕТИКАСИНИНГ АЙРИМ ҚИРРАЛАРИ	655
73.	<i>Huriddin UBAЙДУЛЛАЕВ.</i> “ТАНАЗЗУЛ” РОМАНИДА ТАРИХИЙ ОБРАЗ КОНЦЕПЦИЯСИ	667
74.	<i>Kamol HAKIMOV.</i> “FARHOD VA SHIRIN” TALQINLARI	675
75.	<i>Diyora ABDUJALILOVA.</i> NAVOIY VA TOSHLIJALI MUNOJO TLARI QIYOSI	681
76.	<i>Hamza ALLAMBERGENOV, Dilnoza NORMENGLIYEVA.</i> UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINI O‘RGATISH USULLARI	687

III-SHO‘BA

YOSH TADQIQOTCHILAR NAVOIY VA PUSHKIN HAQIDA

77.	<i>Mohigul ERGASHEVA.</i> PUSHKIN HAYOT YO‘LI VA IJODINI ILMIY-BIOGRAFIK O‘RGANISH TARIXIDAN	694
78.	<i>Malika SUYUNOVA.</i> HAMZA DRAMALARIDA OBRAZ VA BADIY MOTIV	699

Olmos XURRAMOV,
o'qituvchi
(ToshDO'TAU, O'zbekiston)

HOZIRGI O'ZBEK TARIXIY NASRINING JANR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tarixiy nasrining janr xususiyatlari so'z yuritilgan. Tarixiy asarlarning umumiy manzarasini tasavvur qilish va shu asosda umuman adabiyotda tarixiylik muammosiga doir nazariy konsepsiyalarni belgilab olish, shundan so'nggina tanlangan adabiy manbalar tadqiqi hamda tahlilini amalga oshirishga kirishish maqsadga muvofiqligi haqida munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy obraz, tarixiy manba, tarixiy voqea, o'zbek tarixiy adabiyoti, birlamchi va yordamchi manbalar, tarixiy hikoya, tarixiy davr, tarixiy janr.

Abstract. The article discusses the genre features of Uzbek historical prose. An attitude was expressed about the expediency of imagining the general picture of historical works and, on this basis, defining the theoretical concepts of the problem of historicity in literature in general, and only after that starting to carry out the research and analysis of selected literary sources.

Keywords: historical image, historical source, historical event, Uzbek historical literature, primary and secondary sources, historical story, historical period, historical genre

O'zbek adabiyotida tarixiy obrazlarni talqin etayotgan va bu ishga endi kirishmoqchi bo'lgan ijodkorlar nazariy manbalar bilan ishlashning barcha mukammal variantlariga egalar. Chunki millatimiz tarixida ulkan ahamiyat kasb etadigan, hatto jahon xalqlari tarixiga o'z ta'sirini o'tkazgan buyuk shaxslar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular haqida yozilgan tarixiy manbalar esa son-sanoqsiz. Bunday manbalarning makon va zamon ko'lami ham nihoyatda keng.

Masalan, Amir Temur haqida asar yozayotgan ijodkor faqat sohibqiron o'z qo'li bilan yozgan "Temur tuzuklari" asari bilan cheklanishga majbur emas. Amir Temur davridagi tarixchilar yozib qoldirgan ko'plab tarixiy manbalar bu zotning siyrat-u shamoyilini har tomonlama yoritish imkonini beradi. Bundan tashqari sohibqiron bobomiz haqida arab, eron, hind tarixchilari yozgan tarixiy asarlar, Yevropa tarixchilari, faylasuflari, yozuvchi va dramaturglari asarlari mavjudki, bunday ko'lamdor manbalar o'zbek hamda jahon adabiyotida Amir Temur obrazini mukammal darajada talqin etish

imkonini beradi. Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Amir Umarxon, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy obrazlarini yaratishda ham ijodkorlar xuddi shunday katta manbaviy imkoniyatlarga ega-lar. Ta'kidlash joizki, o'zbek yozuvchilari bunday imkoniyatlardan ma'lum ma'noda foydalanganlar va foydalanishda davom etmoq-dalar.

Shu nuqtayi nazardan hozirgi o'zbek adabiyotidagi tarixiy mav-zularni yoritish tamoyillarini umumiy planda tizimlashtiradigan bo'lsak, quyidagi tasnif hosil bo'ladi:

1. Tarixiy davrlar keng planda badiiy tasvir etilgan asarlar.
2. Muayyan tarixiy shaxs hayoti va faoliyati asos qilib olingan tarixiy asarlar.
3. Muhim tarixiy voqealar badiiy aks ettirilgan asarlar.

Ushbu tematik tasnif hozirgi o'zbek adabiyotida tarixiy mav-zu anchayin keng qamrovga ega ekanini ko'rsatadi. Ammo lozim o'rinda ushbu tasnifni yanada mukammallashtirish, adabiy turlar, janrlar, janr shakllari, xronologik qamrov, o'tmish va zamonaviylik-ni sintezda ifodalashi va h.k. prinsiplar asosida ko'p planli tizimda ham tasnif etish mumkin. Bu o'rinda esa tarixiy asarlarning umu-miy manzarasini tasavvur qilish va shu asosda umuman adabiyotda tarixiylik muammosiga doir nazariy konsepsiyalarni belgilab olish, shundan so'nggina tanlangan adabiy manbalar tadqiqi hamda tah-lilini amalga oshirishga kirishish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan Bobur va boburiylar obrazi talqin etilishi mumkin bo'lgan tarixiy manbalar o'zining ko'lam-dorligi, tarixiy talqinlarining haqqoniyligi, dalillarga boyligi bilan tarixiy asar ijodkorlari imkoniyatlarini nihoyatda kengaytirishi-ni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. Bobur va boburiylar obrazi talqini uchun birinchi darajali manba vazifasini, albatta, "Bobur-noma" bajaradi. Ikkinchi darajali manba sifatida Bobur avlodlari tomonidan yozib qoldirilgan manbalarni ko'rsatish o'rinli bo'ladi. Uchinchi darajali manbalar sirasiga Boburning Xondamir va unga o'xshash millatdoshlari tomonidan yozilgan tarixiy-badiiy asarlar kiradi. To'rtinchi darajali manbalarni Bobur va boburiylar haqida xorij tarixnavislari, adabiyotchilari, olimlari yozgan manbalar tash-

kil etadi. Bizningcha, bunday qamrovdor manbalarni chuqur o'rganish, solishtirish, tarixiylik prinsiplari asosida badiiy umumlashtirish orqaligina Bobur va boburiylar obrazini real va badiiy jihatdan mukammal tarzda talqin etishga erishish mumkin.

Zamonaviy o'zbek tarixiy adabiyotining boshlanishi adabiyotshunoslar tomonidan milliy uyg'onish deb nomlangan davrni tashkil etgan jadid ziyolilari ijodiy faoliyati bilan bog'liq. XX asrning 30-yillariga qadar xalqimiz ijtimoiy turmushida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlar, xususan, o'tmish madaniy durdonalarini qayta tiklash uchun birmuncha imkoniyat bor edi. Bu davr jamiyatidagi avangard fikr egalari, savodli, ko'zi ochiq kishilar bo'lgan jadid ziyolilari milliy ongini zamon talablariga ko'ra yuksaltirish vazifasini o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar. Ularning bu boradagi maorifchilik, matbuotchilik va siyosiy harakatlaridan tashqari millat ongi va ma'naviyatini ko'tarish uchun badiiy adabiyotni ham muhim vosita qilib tanlagan edilar. Mustamlaka siyosati ostida ezilayotgan, atayin ongsizlik va savodsizlik chohiga sudralayotgan millat kishilarining ko'zini ochish, tarbiyalashning eng samarali yo'li unga shonli o'tmishi manzarasini chizib berish, o'tmishdan ibratlantirib qayta tarbiyalash edi. Bunday tarbiyaviy vazifani esa tarix, falsafa, publitsistikadan ham ko'ra adabiyot, xususan, tarixiy adabiyot o'rinlatib bajarishi mumkin edi.

Shu va shu kabi ijtimoiy, milliy ehtiyojlar natijasi bo'lib ilk tarixiy dramalar maydonga keldi. Abdurauf Fitrat o'zining "Abulfayzxon" tragediyasi syujeti orqali to'zg'igan xalq, ichki nizolar oqibatida vujudga kelgan mustamlaka xo'rliklari haqida millat kishilarini ogohlantirmoqchi bo'ldi. Abulfayzxon obrazi vositasida qo'rqqoqlik, gumon, adolatsizlik, zulm quliga aylangan millatboshi – hukmdor fojiasini ko'rsatdi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida zulmatga aylanayotgan millat shomini tasvir etdi. Buning sabablarini uch xonlik, xususan, Xudoyorxon davridagi davlat boshqaruvidagi turg'unlik, o'zaro kelishmovchilik, ma'rifat va ilmga rag'batsizlik, ma'naviy tubanlikda deb tushuntirdi. Jadid ziyolilarining qator lirik asarlarida ham milliy o'tmishimiz o'zlikni anglash, ibrat vositasi sifatida talqin etildi.

30-yillardan keyin tarixiy mavzularda qalam tebratish, millat

o'tmishiga oid shonli voqealar, o'zbek xalqining faxri bo'lgan tarixiy shaxslar haqida badiiy asar yozish jiddiy ta'qib ostiga olindi. "O'tmishni ideallashtirish" kechirib bo'lmas siyosiy xato deya baholandi. Oqibatda tarixiy janrlar o'zining tabiiy o'zanidan uzildi. Tarixiy mavzuda asarlar yozish adabiy jarayon kun tartibidan deyarli tushayozdi. Oybekning 40-yillarda yozilgan "Navoiy" romani, keyinroq Maqsud Shayxzoda tomonidan yaratilgan "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" asarini istisno etganda pichoqqa ilinadigan tarixiy asarlar dunyoga kelmadi. Faqat 70-yillarga kelib yozuvchi Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani yozildi. Bu o'zbek tarixiy adabiyotining taraqqiyot tomon tashlagan jiddiy qadami edi. Shu asar bilan jadidlar boshlab bergan tarix mavzusi yana adabiy jarayonning kun tartibiga qo'yildi. Zotan, muayyan tarixiy shaxs va uning davrida kechgan milliy tarixni tasvirlash an'anasini Oybek va Shayxzoda asarlarida ham bor edi. Ammo faqat Odil Yoqubovga kelib, markaziy qahramon tarixiy fenomen darajasida, keng epik qamrov kasb etdi. Mirzo Ulug'bek shaxsiyati orqali millat tarixining ma'rifat, ilm, adolatga to'lg'in davrlari realistik tasvir etildi. Xullas, "Ulug'bek haqida yana bir ajoyib asar – O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanining vujudga kelishi o'zbek tarixiy romanchiligining muhim yutuqlaridan bo'ldi" [1;103].

Albatta, o'zbek tarixiy adabiyoti bu davrga kelib, ma'lum tajriba orttirgan, o'zbek tarixiy janrlarining o'zbek mumtoz tarixnavisligi, dunyo va rus tarixiy adabiyoti ta'sirida o'ziga xos tamoyillari shakllana boshlagan edi. Bugungacha maydonga kelgan o'zbek tarixiy adabiyotini umumiy planda olib qaraydigan bo'lsak, unda quyidagi badiiy-tarixiy tamoyillar mavjudligi ayon bo'ladi:

1. Albatta, tarixiy janrning maydonga kelishi tarix ilmi, sof dalillarga asoslanuvchi tarixnavislikdan farq qiladi. Tarix ilmida boshdan oxir tarixiy faktlar yetakchiligi kuzatiladi. Tarixiy janr ustida ishlayotgan ijodkor badiiy tafakkur, badiiy to'qima, badiiy shartlilik ataluvchi poetik usullar vositasida ish ko'radi. Ammo bu degani yozuvchi tarixiy voqealar oqimini istagancha bichib-to'qiyverishi mumkin degani emas. O'zbek tarixiy adabiyoti namunalarini kuza-tish shuni ko'rsatadiki, tarixiy asarga kiritilgan har qanday obraz talqini, har qanday syujet chizig'i, har qanday vaziyat (u dramatik,

fojiaviy, komik bo'ladimi bundan qat'iy nazar) o'sha tarixiy makon va zamonda ro'y berishi mumkin bo'lsin. Adabiy janr tarkibida yuz beradigan bunday mumkinlik, ehtimollik holatlari tarixiy voqelikning tabiiy oqimiga hamohang, mos bo'lishi lozim.

2. Tarixiy janrlarda badiiy aks ettirilgan barcha voqealar, shaxslar, kichik-kichik epizodlar, mushohada va munosabatlar, sifatlash va o'xshatishlar, hatto detallargacha tarix ilmi yutuqlariga tayanmog'i maqsadga muvofiq. Aks holda bu asar tarixiy realistik janr namunasi bo'la olmaydi. XX asr o'zbek tarixiy adabiyotining aynan mana shu yo'ldan borgani kuzatiladi.

3. Badiiy jihatdan yetuklik kasb etgan tarixiy janr namunalari faqat estetik vazifa bajarish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bunday asar o'zining estetik chegaralarini yorib o'tib, tarixiy o'zlikni anglash maqomiga ko'tariladi. O'quvchiga badiiy zavq, tarix haqida axborot berish bilan birga unda millat o'tmishiga hurmat, milliy ma'naviyat tuyg'ularini uyg'otadi. Bir so'z bilan aytganda badiiy vazifasini umummilliy axloq va tarbiya vazifalari bilan mushtaraklikda ado etadi.

4. Tarixiy hikoyalarda o'tmishda ro'y bergan muayyan voqea tasvir etiladi. Bu voqea tasviri asosida ham, albatta, tarixiy ma'lumotlar yotadi. Agar tasvir etilgan tarixiy voqea badiiy asar yozilgan davr uchun muayyan ma'naviy, ma'rifiy badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lmasa, bu voqeaning badiiylashtirilishidan hech bir ma'no yo'q. Tarixiy voqeaning badiiy tasviri, albatta, muayyan maqsadga xizmat qilishi lozim. O'shandagina u o'zining estetik vazifasini bajargan bo'ladi.

5. Tarixiy asar milliy o'zlikni anglash yo'lida xizmat qilishi barobarida shaxs tarbiyasi masalasiga ham daxl qiladi. Bu vazifani tarixiy shaxslar obrazlari talqini jarayonida amalga oshirish vazifasini ko'proq qissa janri bajaradi. Qissa janriy tabiatiga ko'ra tarixiy konfliktlar, fojiaviy vaziyatlarda g'olib bo'ladigan tarixiy shaxsni realistik tasvir etadi. Ayni jihat o'z navbatida yangi zamon kishisi, zamonaviy shaxs tarbiyasi uchun muhim omil bo'ladi. Voqealar markazida yagona shaxs taqdiri, tabiatining tasvir etilishining yosh avlod tarbiyasi uchun ham o'ziga xos ahamiyati bor.

6. Tarixiy roman (dilogiya, trilogiya, tetralogiya, epopeya) o'zining keng epik ko'lami bois tarixiy voqelikning badiiy analogiga

o'xshaydi. Shu nuqtayi nazardan uning estetik, etik qamrovi ham milliy, ba'zan umumbashariy miqyos kasb etadi. O'zining ko'p tarmoqli syujet liniyalari, obrazlar tizimi, konseptual g'oyalari bilan universal vazifa bajaradi.

7. Tarixiy o'tmishning muhim lahzalarini o'z zamonasi ongi-ga muhrlashda lirik asarning oldiga tushadigan talqin shakli yo'q desak xato bo'lmaydi. Tarix ilmi, hatto tarixiy proza ham bunday lahzalarga bee'tibor bo'lishi, o'sha muhim lahzani ilg'amay qolishi mumkin. Lirik asar esa aynan mana shunday nozik nuqtalarda paydo bo'ladi. Tarix hissiyotini badiiy ifodalashdek og'ir vazifani zimmasiga oladi.

8. Tarixiy drama tarixiy konfliktlar, fojialar, tarixiy shaxsga xos ichki ziddiyatlarni badiiy aks ettirish uchun xizmat qiladi. Dramatik asarlarning tarixiylik funksiyasi shu jihatdan muhimki, unda tarixiy o'tmishning aniq va lo'nda bir parchasi ifoda etiladi. Makon aniqligi va badiiy vaqtning tig'izlashtirilgan talqini dramatik asarning retseptivligi va ommaviyligini oshiradi. Bunda dramaturg, rejissyor va aktyor uchligi, bu uch talqin shakli o'rtasidagi uyg'unlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida an'anaga kirgan bunday poetik kriteriyalar xuddi Amir Temur, Mirzo Ulug'bek shaxslari kabi taqiqlangan, badiiy adabiyot obyektiga aylanishiga yo'l qo'yilmagan, ammo keyinchalik o'zbek tarixiy adabiyotining fenomenal obraziga aylangan tarixiy shaxs – Zahiriddin Muhammad Bobur obrazi talqinida ham to'la namoyon bo'ladi. U haqdagi lirik, dramatik va prozaik asarlarini o'rganish shundan guvohlik beradiki, Bobur va boburiylar obrazi talqinlari orqali o'zbek tarixiy adabiyoti bir nechta yangi milliy badiiy kriteriyalar bilan boyidi. Holbuki, "O'zining qisqa umrining 30 yildan ko'pini sarson-sargardonlikda o'tkazgan, davr ziddiyatlarining barcha dahshatini tatib ko'rgan chinakam omadsiz shoh va, ayni paytda, ilg'or sharq mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari ruhida tarbiyalangan, "Boburnoma" kabi buyuk ensiklopedik asar va yuzlab go'zal g'azallar muallifi bo'lgan, bu ikki xislati o'rtasidagi shiddatli kurash o'tida bir umr qovrilib o'tgan Bobur taqdiri bir necha avlod shoir va yozuvchilarini qiziqtirib kelar, lekin kichik poemalar va hikoyalarni hisobga olmaganda, yirik prozada bu ishga

hali jur'at qilib qo'l urilmagan edi" [1;116]. Haqiqatan Bobur davridagi chuqur drammatizm, uning shaxsiyatiga xos fojaviylik, ichki kolliziya boshqa janrlardan ham ko'ra aynan roman tafakkurini taqozo qilar edi. Bu vazifa esa birinchi bo'lib yozuvchi Pirimqul Qodirov tomonidan bajarildi. Shu tariqa Bobur va boburiylar obrazining keyingi talqinlari uchun ham o'ziga xos poetik start berildi. Shu tariqa o'zbek adabiyotida Bobur va boburiylar obrazi talqin etilgan lirik, epik va dramatik asarlar muayyan bir badiiy tizimni, ulkan tadqiqot obyektini tashkil etdi.

O'zbek adabiyotida Bobur va boburiylar obrazini talqin etish uchun tarixiy, adabiy-ilmiy manbalar muhim ahamiyatga ega. Shuni e'tiborga olib, dastlab shu manbalarning muxtasar tasnifi va tahlilini berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu doiraga kiradigan manbalarni ikki guruhga bo'lib, *birlamchi* va *yordamchi* tarixiy manbalar sifatida tasnif etish mumkin.

Bobur va boburiylar obrazini yaratishda muhim bo'lgan *birlamchi manbalar*, albatta, "Boburnoma" va bevosita uning qalamiga mansub boshqa asarlar hisoblanadi. Asarning Elfinston, Britaniya, Qozon, Haydarobod nusxalari asosida mukammal nashri amalga oshirilishida Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Saidbek Hasanov kabi o'zbek olimlarining, Anetta Bevrij, yapon olimi Eyji Manolarning mashaqqatli xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Bobur shaxsiyatini badiiy talqin etishda ushbu nashrlarning ahamiyati cheksiz. Ayniqsa, so'nggi yillarda matnshunos olim Saidbek Hasanov tomonidan Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Eyji Mano nashrlari qiyosi asosida nashrga tayyorlangan "Boburnoma" asari har jihatdan mukammalligi nuqtayi nazaridan e'tirofga loyiq.

Mutaxassislar tomonidan "Boburnoma" tarixiy, memuar, geografik, etnografik, biografik asar sifatida baholanadi. Buni to'la e'tirof etgan holda aytish mumkinki, "Boburnoma" qator badiiy-tarixiy, estetik-etik va ruhiy-psixologik jihatlarni ham o'zida aks ettiradi. "Boburnoma" Bobur shaxsiyati haqida ma'lumot beruvchi avtobiografik asar bo'lishi bilan birga, birinchi o'zbek ilmiy-tarixiy, adabiy-ilmiy biografiyasi namunasi hamdir. O'quvchi unda muallif avtobiografiyasi va obrazidan tashqari ko'plab boshqa tarixiy shaxslar biografiyasi, obrazi va xarakter xususiyatlarini kuzatishi mumkin. Shuningdek, bu

asar o'zigacha yozilgan tarixiy asarlar an'anasini davom ettiribgina qolmay, badiiy-tarixiy nasrni yangi bosqichga olib chiqdi. "Boburnoma"ning badiiyatga yo'g'rilgan uslubi, undagi turli-tuman badiiy san'at namunalari, voqeot, holot, tushlar tasviri, butun va parcha shaklida keladigan lirik asarlar bunday xulosa yasashimizga to'la asos beradi. Bobur va boburiylar tarixiy obrazini shakllantirishda asardagi bu kabi xususiyatlarning ulkan ahamiyati bor.

Umuman, badiiy adabiyotdagi tarixiylik tamoyili murakkab va xilma-xil nazariy kriteriyalarni talab etadi. Tarixiy-badiiy asarning dunyoga kelishida real tarixni tashkil etadigan voqelik, davr va shaxs kategoriyalarining badiiyat me'zonlari asosida talqin etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy asarda aks ettirilgan voqelik qamrovi o'sha asar janrining shakllanishi uchun vosita bo'lib xizmat qildi. Tarixiy obraz va xarakterlarning maydonga kelishida real-tarixiy vaziyat va unda faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxslar haqidagi xilma-xil manbalarning ahamiyati muhimdir.

Adabiyotlar

1. Sirojiddinov Sh. (2011). Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 233.
3. Сатторов М., Каттабеков А. Олис юлдузлар жилоси: Тарихий бадий адабиёт ва ватанпарварлик тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б. 264.
4. Djurakulov U. "Khamsa" as a Universal Genri // The First Transboundary Conference for Sustainable Sokletles – 2023 / Pamir 2023.
5. Jo'raqulov U. (2017) Chronotope poetics in Alisher Navoi's "Khamsa". Monograph. Tashkent: Turon-iqbol. 206 p.
6. Қосимов Б., Каттабеков А. Салом келажак. – Т.: Фафур Фулом, 1986. – 277 б.
7. Қурононов Д., Мамажононов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Академнашр, 2013. – 234 б.
8. Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007. – 352 б.
9. Муродов Ғ. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Т.: Фан, 2005. – 168 б.